



BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGNING KASBIY MAHORATI

Odilova Xayotxon Nuritdinovna

Fargʻona viloyat Oʻzbekiston tumanidagi 60 - DMTT uslubchisi

Annotatsiya:

Bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishda pedagogning kasbiy mahorati shuningdek, Ekologik ta'lim haqida fikr yuritiladi. Ekologik ta'lim dasturi insonlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilash, atrof-muhitni saqlash uchun zaruriy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Tarbiyachi, kreativlik, ekologik ta'lim, dastur, pedagog, shaxs, individuallik, faollik, tabiat, komponent.

Ekologik ta'lim va tarbiya tushunchasi, mazmuni va mohiyati

Bugungi kunda dunyodagi ekologik muammolarni hal etishda aholi, ayniqsa, yoshlar, bolalarning ekologik madaniyatini yuksaltirish, har bir insonda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, mamlakatning noyob tabiati, tabiiy boyliklarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish, ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitga salbiy ta'sirning oldini olish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor karatilayotganligi, shu o'rinda "Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", "Ilk qadam" davlat dasturi ham maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlab o'tish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan barcha metodik va ta'lim-tarbiya berish ishining mazmuni, ularni tashkil etish, shakl va metodlarini tanlash qonuniyatlarini belgilash muhim hisoblanadi. Bunda maktabgacha ta'lim tashkiloti turli yosh guruhlarida tabiat bilan tanishtirish xilmaxil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda ekologik tarbiyani amalga oshirish zarurdir Bolalarni tabiat bilan tanishtirish



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th February, 2025

mashg'ulotlarida ekologik tarbiyaga oid bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda bolalarda ILK qadam dasturi talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi. Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg'ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko'ra tanlanishi muhim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan ba'zi mashg'ulotlarda bolalarning boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni o'qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Aytib o'tilgan metodlardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg'ulotlarning asosiy vazifasi — bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan bilimlarini mehnat va o'yinlarda amalda qo'llaydilar.

Mashg'ulotlar kichik va o'rta yosh guruhlarda bir oyda 2 martadan, katta guruhlarda esa haftada 1 martadan o'tkaziladi. Ekskursiyalar o'rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha guruhlarda qo'shimcha sifatida maqsadli sayrlar o'tkaziladi. Mashg'ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir. Tarbiyachi mashg'ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu bo'yicha tabiatshunoslik bilimlarini to'ldirishi, so'ng mashg'ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim. Bunda tarbiyachi «Ilk qadam» dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg'ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o'rni (mashg'ulotda boshlang'ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo'lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo'llash mashq qilinyaptimi va shu kabilar)ni aniqlash lozim. Bu o'rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo'llaydi. Tarbiyachi qanday metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir birini to'ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad —



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

o'rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to'g'ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak. Mashg'ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, ehtiyotkorona, g'amxo'rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo'llanadi. Mashg'ulotga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda uning tuzilishini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob_yektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko'rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o'simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma'qul. Tanlangan metod dastur vazifasining to'liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta'minlashi lozim. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazishdan oldin bir qancha ko'rgazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariylar yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar, foydali hasharotlar, o'simliklar va ularning qismlari va boshqalar)ni tayyorlab qo'yadi.

Ekologik madaniyat – Maktabgacha ta'lim pedagogikasining yangi yo'nalishlaridan bo'lib, bolalarni tabiat bilan tanishtirishning an'anaviy shakllaridan farq qiladi. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar shaxsiy faoliyati sohalari ekologik rivojlangan ong, emotsional-hissiy tuyg'ularni rivojlantirishga qaratilgan.

Ekologik tarbiya – bu insonning umumiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lib faoliyat turlarining ko'p yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, natijada insonning ekologik ongi (qiziqishlari, ehtiyojlari, his-tuyg'ulari, qayg'urishi, estetik baholashi, didi va h.k.) shakllanadi. Maktabgacha yosh ekologik madaniyatni shakllantirishda eng ma'qul davr hisoblanadi. Bu yoshda bolaning dunyoqarashi va ongi, odob-axloq me'yorlari rivojlanayotgan bo'ladi. Bu yoshda inson, bola go'zallikka, jonli va jonsiz tabiat bilan hamohang bo'lishga, jamoaviy va do'stona munosabatlarga tayyorlik, ruhiy yuksalish va o'zini anglashga, olamni chegaralarsiz qabul qilishga, yuksak axloqiy sifatlarga intiladi. Bola o'zgalarning qayg'usini his qiladi, o'zning va boshqalarning adolatsizligini og'ir qabul qiladilar, kattalarning yaxshi ishlariga va sifatlariga taqlid qiladilar. Bolaning beg'ubor qalbi moddiy va ruhiy olamni



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

o‘zida birlashtiradi. Mana shu birlashuvsiz bolada ekologik dunyoqarash va ongni shakllantirish imkonsiz.

Zaminimizdagi tabiiy manbalarni asrab-avaylashning eng muhim vositalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni tabiatni asrashga oid ekologik bilimlardan xabardor qilish, ularga ekologik tarbiya berish hisoblanadi. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarak-atrofdagi muhitni yaxshilash, uning buzilishi, ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik, tabiatga nisbatan axloqiy qiymatdagi xatti-harakatlarni amalga oshirish malaka va ko‘nikmalari esa bolalikdan rivojlan-tirilsagina maqsadga erishish mumkin. Ayni maqsadlar insonning butun hayoti davomida mafkura, siyosat, san’at, adabiyot, ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish amaliyoti, ta’lim-tarbiya, tashviqot orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu ishlarning dastlabki shakllari maktabgacha ta’lim yoshidan boshlanishi zarur. Bolaning maktabgacha ta’lim yoshi davrida tevarak-atrofdagi borlikka nisbatan ongli ravishda tabiatga ijobiy munosabati tarkib topa boshlaydi va u ona tabiatga bo‘lgan g‘amxo‘rligini orttira boradi. O‘zbekiston tabiatida bola uchun kerakli bo‘lgan bilim va taassurotlarga ega bo‘lishga yordam beruvchi manbalar yetarlidir. Tevarak-atrofdagi mavjud bo‘lgan jonsiz va ayniqsa, tirik tabiat obyektlariga bo‘lgan qiziqish bolalarda erta paydo bo‘ladi. Bolada ko‘z bilan ko‘rgan narsalarga nisbatan qiziqishi orta boradi. Bundan tashqari, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar, ranglar jilosi, turli-tuman hid, ovozlar ham ular diqqatini o‘ziga jalb kiladi. Bolalar hamma narsani o‘z ko‘zlari bilan yakindan ko‘rishga, ushlab ko‘rishga harakat kiladilar. Bolalardagi atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishni qo‘llab-quvvatlash bilan bir vaqtda, ularni tabiatni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash kerakligini esdan chiqarmaslik kerak.

Ekologik ta'lim dasturining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1. Ekologiyaning asoslari:

-Tabiiy resurslar va ularning turlari

-Ekologik tizimlar va ularning ishlash prinsiplari

-Bioxilma-xillik va uning ahamiyati

2. Atrof-muhitni ifloslantirish va uning oqibatlari:



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

-
- Havoning, suvning va tuproqning ifloslanishi
 - Iqlim o'zgarishi va uning tasirlari
 - Oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik ta'siri
 - 3. Barqaror rivojlanish:
 - Barqaror ishlab chiqarish va iste'mol
 - Ekologik axloq va siyosat
 - Yashil iqtisodiyot va resurslarni boshqarish
 - 4. Tabiatni muhofaza qilish:
 - Ekologik himoya va tabiatni saqlash
 - Milliy bog'lar, tabiat qo'riqxonalari va biologik xilma-xillikni saqlash
 - O'simlik va hayvonlar dunyosini himoya qilish
 - 5. Amaliy mashg'ulotlar:
 - Ekologik tadbirlar va aksiyalar
 - Yashil texnologiyalar va ularning amaliy qo'llanilishi
 - Mahalliy ekologik muammolarni tahlil qilish va hal etish
 - 6. Ijtimoiy mas'uliyat va ekologik etika:
 - Ekologik ongni oshirish
 - Jamoatchilikni atrof-muhitni saqlashga jalb qilish
 - Yashash tarzi va ekologik izni kamaytirish
 - Ekologik ta'limning maqsadlari:
 - Tabiatga hurmat va sevgi uyg'otish
 - Ekologik bilimlarni kengaytirish
 - Ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish
 - Barqaror rivojlanishni targ'ib qilish

Ushbu dastur o'quvchilarga nafaqat ekologik bilimlar berish, balki ularni hayotda faol tarzda ekologik muammolarni hal qilishga ilhomlantirishni maqsad qiladi.

Shunga e'tibor berish kerakki, katta odamlarning o'zlari tabiatni sevishlari va bu tuyg'uni bolalarda uyg'ota olishlari zarur. Biz insonlarning hech qachon tabiat bilan aloqamiz uzilmaydi. Shunday ekan, bolalarga kichkina dala, gulning chiroyi, quyosh botishidagi ranglar jilosi, nastarin gulining gullashini ko'rish va qushlar chug'urlashining ohanglarini eshitish uchun sabr-toqatli bo'lish kerakligi va



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econferences.com

16th February, 2025

go‘zallikni his qilishni o‘rgatish lozim. Ekologik tarbiya maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiyalash, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishlarida katta yordam beradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarga tarbiya berishda unga toza kiyim kiydirish, yurish-turishining ozoda bo‘lishini uqtirib turish ilk ekologik tarbiyaning asosi bo‘ladi. Bola yashaydigan uy va uning atrofi toza, shinam va chiroyli bulsa, farzand ham shunday yashashga intiladi. Ekologik ta‘lim, ya‘ni sog‘lom turmush tarzini tashkil qilishda tarbiyani ikki xil yo‘l bilan amalga oshirish muhim: birinchidan, ekologik ta‘lim-tarbiya oilada ota-onalar ishtirokida; ikkinchidan, maktabgacha ta‘lim tashkiloti, maktab, oliy va o‘rta maxsus bilim yurtlarida olib borilishi lozim. Ekologik ta‘lim-tarbiya maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida bebaho insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi: tabiatning barcha obyektlariga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o‘rganish, unga g‘amxo‘rlik qilish malakalarini rivojlantiradi. Tabiat bolani ma‘naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo‘ladilar. Ularni yam-yashil o‘tloqlar, anvoyi gullar, kapalaklar, qo‘ng‘izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag‘a-pag‘a yog‘ayotgan qor uchqunlari, jilg‘a va ko‘lmaklar o‘ziga jalb qiladi. O‘simlik hamda jonzotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg‘otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo‘lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo‘lishni shakllantirishga yordam beradi.

Tabiatda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarkib toptirishga katta e‘tibor beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo‘lmaganda ilk bilimlarni egallab, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o‘rganib, tabiatni kuzatish, uning go‘zalliklarini ko‘ra olishni bilib olgan taqdiridagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik va g‘amxo‘rona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash imkoniyati tug‘iladi. Bolalarda tabiat, jonajon o‘lka, ona Vatanga muhabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi muhim



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

ahamiyatga ega bo‘lib, xuddi mana shu yoshda bolada ma’naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevorlari shakllanadi.

Bolalarning ekologik tarbiyasi - maqsad sari yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtayi nazaridan yo‘naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi.

Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo‘lib hisoblanadi. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi - tabiatni bilish bo‘yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo‘naltirilganligini kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o‘yinlarda) foydalanish tashkil qiladi. Tabiatga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar bola tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog‘liqdir. Ekologik mazmun bilan bog‘liq bo‘lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o‘zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo‘naltiradi. Tabiatga bo‘lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo‘yicha bilim alohida o‘rin egallaydi. Tabiatga nisbatan bo‘lgan munosabatni rivojlantirish (mashg‘ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma’naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil qilish bilan yakindan bog‘liq. Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan bahra olish, quvonish, taajjublanish, o‘zining qilgan ishidan mag‘rurlanish, qoniqish hissini uyg‘ota bilishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni tabiat, yilning turli fasllarida unda ro‘y berib turadigan o‘zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Hosil kilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo‘lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo‘yish, uni ehtiyot kilib e‘zozlash, tirik jonivorlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish tabiatga qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko‘paytirib borayotgan kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash kabi eng yaxshi xususiyatlarni shakllantirib borishga ham yo‘l ochadi. Maktabgacha ta’lim



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

tashkilotining xona o‘simliklari va ba’zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, unga mehr-muhabbat uyg‘otishga yordam beradi.

Ekologik ta’lim-tarbiya - insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, an’analarini asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehr-muhabbat uyg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat. Yashil olam inson salomatligini saqlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligi, shuning uchun ham har birimiz o‘z ta’lim dargohimiz, hovlimiz, ko‘cha va xiyobonlarni ko‘klamzorlashtirish ishida faol qatnashishimiz, ko‘chat o‘tqazib, ularni parvarish qilish orqali atrof-muhitning musaffo bo‘lishiga hissa qo‘shishimiz kerakligini tushuntirishimiz lozim. Hozirgi davr o‘sib kelayotgan yosh avlod ongida tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish hissini shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etmoqda. Tabiatning kelgusida gullab-yashnashi yoki ekologik muammolarning globallashtirib borishi yosh avlodning tabiatga nisbatan munosabatiga bevosita va bilvosita bog‘liqligini yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ekologik tarbiya va go‘zallik bilan tarbiyalashda tabiat bilan mag‘rurlanish hissini tarbiyalash zarur. Tabiatdagi gullar, o‘tlar, hasharotlarning hammasi bolalarni o‘ziga jalb etadi. Bolalarimizni tabiat soqchilari kilib tarbiyalashimiz zarur. Tarbiyachi bolalarga ilk yoshdan tabiat bilan taajjublanish, mag‘rurlanish hissini singdirib borishi lozim. Ilk yosh sensor tarbiya berish uchun tevarak-atrof hakida tasavvurlarni yig‘ish uchun eng qulay davrdir. Ilk yoshdagi bolalar bilan ishlashda bizning vazifamiz: tevarak-atrof, tabiat xaqidagi birlamchi tasavvurlarni singdirish, o‘simlik, hayvonlar xam jonli ekanligi, ularning nafas olishi, suv ichishi, ovqatlanishi, insonlar kabi og‘riqni his etishi hakida tushunchalar beriladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat olamini o‘rganish uchun guruhlarda ekotizimni o‘rganish bo‘yicha markazlar faoliyatini faollashtirish, ya’ni har bir guruh tabiat burchagida jonzorlar, dorivor va madaniy o‘simliklar, idishlarda suv, qum, toshlar bo‘lishi kerak. Bolalar ularning xususiyatlarini o‘yin faoliyati yordamida o‘rganib boradilar, o‘zlarining ijodiy sifatlarini namoyon qiladilar, xayoliy va sensor qobiliyatlarini hamda mayda motorikani



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

rivojlantiradilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiyada insonlar bilan tabiat o'rtasida uzviylik, insonga bulgan ta'sir borasida ma'lumotlar berib, mashg'ulot o'tish jarayonida bolalar tabiat haqida bilishi kerak bo'lgan tushunchalar singdirilishi lozim.

Ekologik tarbiya berishning mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Atrof-muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri;
- Tabiat va uning ahamiyatini aniqlash;
- Tabiatga muhabbatni rivojlantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi;
- O'z tumani, shahri, qishlog'i va uyi, MTT hovlisini ko'kalamzorlashtirishda, hatta mashg'ulot xonalaridagi o'simliklarni ham parvarishlashga qiziqishlarini oshirish;
- Atrof-muhit muhofazasi, bunda bolalarning vazifalari;
- Tabiatni muhofaza qilishda ota-onalar namunasi;
- Oilada, bog'chada tabiatni, o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilish;
- Tabiatga ongli munosabat jarayonida tarbiyalanuvchilarning dunyoqarashini kengaytirish.

MTTda ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonini tashkil etish

Inson hayoti davomida ona tabiatdan olgan ilk quvonchli taasurotlarini hayotining qolgan davrida tez-tez eslab turishi hech kimga sir emas. Shuni unutmaslik kerakki, tabiat – bu moddiy va nomoddiy olamni o'zida birlashtirgan borliqdir. Tirik organizmlarning mavjudligi, o'zaro ta'siri va birgalikda yonma-yon hayot tarziga ekologiya deyiladi. Bugungi kunda insonlarda ekologik madaniyatning yetishmasligi ona zamin, yer sayyorasi kelajagini xatarga solayotganligi insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ekologik madaniyat oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida va maktabda shakllantiriladi. Shuning uchun ham zamonaviy olimlar ekologiya muammolarini kompleks tarzda, uning barcha jihatlarini shuningdek pedagogik tomonlarini hisobga olgan holda o'rganadilar. Pedagogikaning asosiy vazifasi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdir, uning asosini tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy ko'nikmalar, tajribaga



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th February, 2025

asoslangan ishonchli bilimlar tashkil etadi. Ekologiya nafaqat hayvonlar va o'simliklar, balki suv, havo, daryolar, osmon, o'rmonlar, o'tloqlar va boshqalardir. Ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish qanchalik tez boshlansa, uning samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bolani tabiat dunyosi bilan tanishtirish, uni tushunishga o'rgatish, tabiatga ehtiyotkorona yondoshishni shakllantirish uchun kattalarning o'zlari ham ma'lum bir bilimlarni o'zlashtirishlari zarur. Kattalar bolalarda ekologik madaniyatni tarbiyalashdan oldin, o'zlari maktabgacha yoshdagi bolalarda qanday ekologik tasavvurlarni shakllantirish zarurligini bilishlari lozim.

Ekologik tasavvurlarning eng muhimlariga quyidagilar kiradi:

1. Hayotning o'ziga xosligi, murakkabligi, uning nozikligi va himoyaga muhtojligi;
2. Barcha tabiat obyektlarining foydaliligi, o'zaro va bir-biriga bog'liqligi;
3. Hayotning uzluksizligi to'g'risida.

Xulosa qilib aytish joizki, Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish tabiatda hayvonlar va o'simliklarning insonlarga foydali yoki zararli tomonlarini aniqlash bilan emas, balki ularning tabiatning bir bo'lagi sifatida qabul qilish zaruriyati bilan xarakterlanadi. Foydali yoki zararli degan tushunchalardan voz kechish, ularning birgalikda mavjudligi tabiatdagi biologik muvozanatni ushlab turishini anglash lozim. Shuning uchun bolalarda tirik mavjudotlarning o'ziga xos individual xususiyatlarini ko'rishga o'rgatish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avezov Sh.M. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi.–T.:“Ilm ziyo”, 2013.
2. Domuladjanov I.X., Domuladjanova Sh.I., Teshabayev A.M. Hayot faoliyati xavfsizligi. Uslubiy qo'llanma.–Farg'ona: “Farg'ona”, 2014.
3. Moiseev N. N. Ekologiya i obrazovaniye.– M.: “YUNISAM”, 1996.
4. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish.–T., 2005.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfséries.com

16th February, 2025

5. Nigmatov A. Ekologiyaning dolzarb muammolari va hayot faoliyati xavfsizligi. Amaliy mashg‘ullotlarni o‘tkazish bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma.– T.:“Navro‘z”, 2020
6. Sodikova Sh. Maktabgacha pedagogika. Darslik. To‘ldirilgan qayta nashr. – T., 2017
7. Fayziyev Sh.X. Ekologicheskaya politika gosudarstva: Konsepsiya